



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH .....	27
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	32
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<b>Soyibova Matluba Ahmedboyevna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	41
<b>M.O. Yo'ldoshova</b>	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH .....	45
<b>Anvar Deberdiyev</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI .....	49
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR .....	55
<b>Ishimova Mohinur Absalomovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	61
<b>Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna</b>	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	67
<b>Iskanov Xoljigit Nurkosimovich</b>	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI .....	73
<b>Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	79
<b>Yuldashev Akmal Kiyomovich</b>	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH .....	83
<b>Abirova Nargizabonu</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI .....	88
<b>Turayev Abduvohid Kuldashevich</b>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
<b>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	101
<b>Rustamov Zafar</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	107
<b>Metyakubov Azamat Djumanazarovich</b>	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	111
<b>Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	116
<b>Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.</b>	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	121
<b>Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
<b>Melibayev Sodir Adilovich</b>	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI .....	135
<b>Sheraliev Abbos Xolmuminovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN .....	140
<b>Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov</b>	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI .....	147
<b>Yuldashev Adhamjon Axadjonovich</b>	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
<b>Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li</b>	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
<b>To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi</b>	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI .....	162
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....	166
<b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	171
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	175
<b>Bo'taev O'tkir Eshboevich</b>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
<b>Umarova Malika Nematjanovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
<b>Рахмонов Джамшид Одил угли</b>	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
<b>Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна</b>	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
<b>Avazbek Jo'rayev</b>	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	207
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	211
<b>Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich</b>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
<b>Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
<b>Mohichexra Melikovna Mo'minova</b>	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI .....	233
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	239
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI .....	245
<b>Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich</b>	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
<b>Daminov Mirvoxid Isroilovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL .....	255
<b>Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	264
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
<b>Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI .....	276
<b>Namozov Shahzod Maxmud o'g'li</b>	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
<b>Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna</b>	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN .....	290
<b>Shokhrukh Ziyavaddinov</b>	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI .....	299
<b>Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI .....	306
<b>Turdiyev Izatulla Ollaqulovich</b>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	312
<b>Xoliqulova Yulduz Panji qizi</b>	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIY TAJRIBASI .....	317
<b>Mavlonov Ozod Ulug'bekovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	322
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
<b>Boltayev Zokirjon Otanazarovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	334
<b>Adilova Zohida Ikromjonovna</b>	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	339
<b>Umurzakov Dilshodbek Xakimovich</b>	
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ .....	345
<b>Хамидов Далер Дилшодович</b>	
ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA.....	351
<b>Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	



# ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA

**Choriyeva Dilovar Tohir qizi**

Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-bosqich magistranti  
Buxoro davlat universiteti

**Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li**

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi, i.f.f.d, PhD  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ismoil Somoniy maqbarasi misolida tarixiy meros obyektining turistik sig'im imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Miguel Cifuentes metodologiyasi asosida fizik sig'im (PCC) va haqiqiy sig'im (RCC) ko'rsatkichlari aniqlangan. Natijalarga ko'ra, PCC – 41 702 ziyoratchi/kun, RCC esa 29 625 ziyoratchi/kunni tashkil etadi. Olingan natijalar asosida barqaror boshqaruv bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turistik sig'im, fizik sig'im, haqiqiy sig'im, meros obyektlarini boshqarish, YUNESKO Jahon merosi, Cifuentes modeli, barqaror turizm.

**Abstract.** This article examines the tourism carrying capacity of a historical heritage site using the example of the Samanid Mausoleum. Based on the Miguel Cifuentes methodology, the study determines the Physical Carrying Capacity (PCC) and the Real Carrying Capacity (RCC). According to the results, the PCC is 41,702 visitors per day, while the RCC is 29,625 visitors per day. Based on these findings, scientific recommendations for sustainable management have been developed.

**Key words:** tourism carrying capacity, physical carrying capacity, real carrying capacity, heritage site management, UNESCO World Heritage, Cifuentes model, sustainable tourism.

**Аннотация.** В данной статье на примере мавзолея Исмаила Самани исследуются возможности туристической емкости объекта исторического наследия. В ходе исследования на основе методологии Мигеля Сифуэнтеса были определены показатели физической емкости (PCC) и реальной емкости (RCC). Согласно результатам, PCC составляет 41 702 посетителя в день, а RCC — 29 625 посетителей в день. На основе полученных данных разработаны научные предложения по устойчивому управлению объектом.

**Ключевые слова:** туристическая емкость, физическая емкость, реальная емкость, управление объектами наследия, Всемирное наследие ЮНЕСКО, модель Сифуэнтеса, устойчивый туризм.

## KIRISH

So'nggi yillarda xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro turistlar oqimining izchil ortib borishi madaniy meros obyektlaridan foydalanish intensivligini sezilarli ravishda oshirmoqda [1]. Ayniqsa, tarixiy shaharlarda joylashgan noyob me'moriy yodgorliklar turistik talabning asosiy markaziga aylanib, ularni barqaror boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmoqda [2].

Buxoro Markaziy Osiyoning eng qadimiy tarixiy shaharlaridan biri bo'lib, uning tarixiy markazi 1993-yildan boshlab UNESCO World Heritage Centre Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [3]. Shaharda joylashgan ko'plab me'moriy yodgorliklar orasida Ismoil Somoniy maqbarasi va Chashmayi Ayyub maqbarasi alohida tarixiy, diniy va turistik ahamiyatga ega obyektlar hisoblanadi. Mazkur obyektlar Buxoro tarixiy markazining eng ko'p tashrif buyuriladigan nuqtalari qatoriga kiradi.

Turistlar oqimining jadal ortishi ushbu obyektlarning me'moriy yaxlitligi, konservatsion holati hamda tashrif sifati uchun xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity – TCC) konsepsiyasi



meros obyektlarini boshqarishda asosiy ilmiy vosita sifatida qaralmoqda [4]. Turistik sig'im — bu obyektning o'zining fizik, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini buzmaganda qabul qila oladigan maksimal tashrifchilar sonidir [5].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Buxoro tarixiy markazidagi Ismoil Somoniy maqbarasi va Chashmayi Ayyub majmuasi uchun Cifuentes metodologiyasi asosida fizik va haqiqiy turistik sig'im ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni qiyosiy baholash hamda barqaror boshqaruv bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity - TCC) tushunchasi dastlab ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik sayyohlik fanida mustaqil metodologik yo'nalishga aylandi. Srivastava ta'kidlashicha, TCC o'z mohiyatiga ko'ra "ma'lum bir hududda sayyohlik faoliyatining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilish mumkin bo'lgan ziyoratchilarning maksimal soni'ni anglatadi [8]. Ushbu ta'rif vaqt o'tishi bilan kengayib ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini ham o'z ichiga oldi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng tarqalgan yondashuv Cifuentes tomonidan IUCN (Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi) uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Ushbu model Fizik sig'im (PCC), Haqiqiy sig'im (RCC) va Samarali sig'im (ECC) bosqichlarini o'z ichiga olib, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichning tuzatish koeffitsiyentlari orqali hisoblangan qiymatidir. Aylanish koeffitsiyenti tushunchasini metodologiyaga birinchi bo'lib Boullon kiritgan bo'lib, u "kunlik ochiq soatlar / o'rtacha tashrif davomiyligi" formulasini taklif qilgan [14]. Mazkur formula hozirgi kunda ham barcha TCC tadqiqotlarining asosiy hisoblash vositasi bo'lib qolmoqda [9; 13].

Madaniy meros destinatsiyalarida TCC tadqiqotlari

Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros saytlarida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar soni so'nggi o'n yilliklarda keskin oshdi. Magabli va Al-Shorman Iordaniyadagi Petra YUNESKO meros saytida fizik sig'imni hisoblash bo'yicha muhim tadqiqot o'tkazdilar [12]. Boullon modelidan foydalangan holda hisoblangan natijalarga ko'ra, Petra uchun oylik sig'im 16 200 ziyoratchi tashkil etgan, biroq shu bilan birga ushbu ko'rsatkich yanvar oyidan tashqari barcha fasllar davomida oshib ketgani aniqlangan [12]. Tadqiqot tarixiy obyektlarda sayyohlar oqimini mavsumiy taqsimlashning zarurligini ko'rsatdi.

Diniy va ziyoratgoh maqomidagi meros saytlari uchun maxsus TCC hisoblash metodologiyasini Jangra va Kaushik (2017) Hindistondagi Kurukshetra shahridagi Braham Sarovar saytida sinab ko'rdilar [13]. Ular IUCN formulasi asosida beshta ko'rsatkich - maydon, avtoturar joy, hojatxona, ichimlik suvi va yo'lak - bo'yicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, saytning kunlik maksimal quvvati 567534 ziyoratchi ekanligini aniqladilar [13]. Ushbu tadqiqotning metodologik hissasi shundaki, turli funksional zonalar uchun bir kishiga mo'ljallangan maydon me'yorlari (1 m<sup>2</sup> dan 10 m<sup>2</sup> gacha) tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgan.

Erdogan Turkiyaning Amasya shahridagi ko'p xususiyatli YUNESKO meros saytida Cifuentes modelini zamonaviy meros kontekstiga muvaffaqiyatli moslashtirib, PCC, RCC, ECC va ijtimoiy sig'im (SCC) ni birgalikda hisobladi [11]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto umumiy sig'im yetarli bo'lgan hollarda ham alohida zonalarning sig'imi oshib ketishi mumkin - bu holat me'moriy buzilishlarga, mahalliy aholining noroziligiga va sayyohlik tajribasining yomonlashishiga olib keladi [11]. Bundan tashqari, Makhadmeh va boshq. Iordaniya dekapolis shaharlaridan biri - Jerash (Gerasha) arxeologik saytida GAT modellashtirish yordamida sig'imni hisoblash metodologiyasini ishlab chiqdilar va turistlar oqimining me'moriy yodgorliklar xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qo'yayotganini aniqladilar [18].

Sayyohlik sig'imining nazariy asoslari, TALC modeli va ijtimoiy yondashuv

Turistik sig'im muammosi faqat miqdoriy ko'rsatkich bilan cheklanmaydi. U sayyohlik manzilining hayot sikli (TALC) bilan chambarchas bog'liq. Butler taklif qilgan TALC modeli kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turg'unlik va tanazzul bosqichlari sayyohlik sig'imining oshib ketishi qanday qilib manzilning o'z-o'zini yo'q qilishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [15]. Doxey esa mahalliy aholining sayyohlarga munosabatini ifodalovchi "Bezovtalanish indeksi" (Irridex) modelini ishlab chiqib, sig'imdan oshib ketish ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi [17]. YUNESKO/ICCROM/ICOMOS/IUCN tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon merosi kontekstida ta'sir baholash bo'yicha qo'llanma" Buxoro kabi YUNESKO obyektlarida sig'im baholashning huquqiy-metodologik asosini belgilaydi [16]. Ushbu hujjat sayt boshqaruvchilari uchun sig'im hisoblashni majburiy amaliyotga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston va Buxoro kontekstida tadqiqotlar

O'zbekiston, xususan Buxoro shahridagi tarixiy meros obyektlarida TCC ni o'lchashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Mavjud ishlar asosan meros turizmining umumiy rivojlanish muammolari yoki GAT texnologiyalari yordamida marshrut optimallashtirish bilan chegaralanadi. Kilichov va boshqalar Buxorodagi meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, sayyohlik marshrutlarini optimallashtirish modelini taklif qildilar, biroq konkret sig'im ko'rsatkichlarini o'lchamadilar [7]. Khamidov va



Khayrullaeva esa Buxoro viloyatida barqaror turizm rivojlantirish masalasini ko'rib chiqib, turistik infratuzilmaning yetarli emasligi va obyektlarning haddan ortiq zo'riqishi muammolarini belgiladilar [6].

Mazkur adabiyotlar sharhidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda meros saytlarida samarali qo'llanilayotgan bo'lsa-da [9; 11; 12; 13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig'im o'lchovlari hali amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi 5 ilmiy metoddan foydalanildi. Kuzatuv metodi doirasida har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi bevosita kuzatilib, kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o'rtacha tashrif davomiyligi aniqlandi. O'lchov metodi asosida obyekt maydonlari GPS asboblari yordamida joyida o'lchandi va kadastr hujjatlari bilan taqqoslandi. Hujjatlar tahlili metodi orqali kadastr ma'lumotlari, obyekt ma'muriyatidan olingan texnik hujjatlar va O'zgidrometning ko'p yillik iqlim statistikasi o'rganildi. Miqdoriy tahlil metodi yordamida yig'ilgan dala ma'lumotlari Cifuentes formulalari asosida matematik hisob-kitob orqali qayta ishlanib, PCC va RCC ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich aniqlandi. Oxirgi bosqichda, qiyosiy tahlil metodi qo'llanildi. Olingan natijalar xalqaro meros saytlarida o'tkazilgan o'xshash tadqiqotlar Erdo'gan, Magabli va Al-Shorman, Jangra va Kaushiknatijalari bilan solishtirilib baholandi [11; 12; 13].

Ma'lumotlar ikki yo'l bilan yig'ildi: 1) GPS o'lchov asboblari va kadastr hujjatlari yordamida obyekt maydonlari aniqlandi; 2) har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi kuzatildi, kirish va chiqish vaqtlari qayd etilib, o'rtacha tashrif davomiyligi hisoblandi.

Fizik sig'im (PCC) formulasi

Fizik sig'im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$

Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$

$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi:

Belgi	Ma'no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3.0 m <sup>2</sup>
G	Yopiq / ichki zal	2.0 m <sup>2</sup>
H	Tor yo'lak (< 2 m)	1.2 m <sup>2</sup>
I	Minora / tor ko'tarilish	1.1 m <sup>2</sup>
K	Hovuz / suv - ayiriladi	3.0 m <sup>2</sup>
L	Bog' / gulzor - ayiriladi	3.0 m <sup>2</sup>

a qiymatlari Jangra va Kaushik va Cifuentes tavsiyalariga asoslangan [9; 13].

Haqiqiy sig'im (RCC) formulasi

Haqiqiy sig'im PCC ga iqlim va savdo zonasi tuzatish koeffitsiyentlari tatbiq etilishi orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\sum A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{issiq}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{sovuq}}{365}\right)$$

Bu yerda M - savdo rastasi, N - muzey eksponati, O - xizmat texnik zonasi maydoni;  $d_{issiq}$  - yiliga 35°C

dan yuqori kunlar soni (82 kun),  $d_{sovuq}$  - yiliga 0°C dan past kunlar soni (30 kun) O'zgidromet ma'lumotlari asosida [9].



Natijada umumiy iqlim koeffitsiyenti = 71.16% qabul qilindi, ya'ni PCC ning 28.84 %i iqlim cheklovlari sababli kamaytirildi.

Yillik va mavsumiy sig'im

Kunlik ko'rsatkichlardan yillik va mavsumiy sig'imlar quyidagicha hisoblandi:

$$PCC_{yillik} = PCC \times 365$$

$$RCC_{yillik} = RCC \times 365$$

$$PCC_{mavsum} = PCC \times 253$$

$$RCC_{mavsum} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning issiq va sovuq kunlardan ozod bo'lgan faol mavsumi.

Tahlil va natijalar

Ismoil Somoniy maqbarasi

Fizik sig'im (PCC)

### 1-jadval. Ismoil Somoniy maqbarasi- maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m <sup>2</sup> )	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	7 329	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	117	qo'shiladi
Hovuz / suv (K)	450	ayiriladi
Bog' / gulzor (L)	104	ayiriladi
Muzey eksponati (N)	8	RCC tuzatishi

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Ismoil Somoniy maqbarasi hududining funksional zonalarga ajratilgan holda turistik sig'imni hisoblashda qanday ishtirok etishini ko'rsatadi. Ochiq maydon (7329 m<sup>2</sup>) va yopiq ichki zal (117 m<sup>2</sup>) turistlar foydalanadigan hudud sifatida fizik sig'im (PCC)ga qo'shiladi. Hovuz (450 m<sup>2</sup>) hamda bog'-gulzor (104 m<sup>2</sup>) esa foydalanishga mos emasligi sababli umumiy maydondan ayiriladi. Muzey eksponatlari joylashgan hudud (8 m<sup>2</sup>) bevosita PCCga kiritilmay, balki keyingi bosqichda — haqiqiy sig'im (RCC)ni aniqlashda tuzatish omili sifatida hisobga olinadi. Shu tariqa, jadval obyektning real foydalaniladigan maydonini aniqlashga xizmat qiladi (2-jadval).

### 2-jadval. Ismoil Somoniy maqbarasi-sig'im natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	2 316.8
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	18
Iqlim koeffitsiyenti	71.16%
Fizik sig'im - PCC	41 702 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	29 625 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	15 221 230 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	10 813 125 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	10 550 606 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	7 495 125 ziyoratchi/mavsum

2-jadval natijalariga ko'ra, Ismoil Somoniy maqbarasi uchun turistik sig'im hisob-kitoblarning yakuniy natijalarini ko'rsatadi. Unga ko'ra, umumiy sig'im summasi 2316,8 ni tashkil etib, ochiq vaqt (9 soat) va tashrif davomiyligi (30 daqiqa) asosida aylanish koeffitsiyenti 18 ga teng deb olingan. Natijada obyektning fizik sig'imi (PCC) kuniga 41 702 ziyoratchini tashkil etsa, iqlim tuzatish koeffitsiyenti (71,16 %) hisobga olingach, haqiqiy sig'im (RCC) 29 625 ziyoratchiga teng bo'ladi. Shuningdek, yillik va mavsumiy hisob-kitoblar obyektning uzoq muddatli yuklama imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi asosiy madaniy meros obyekti uchun turistik sig'inni ilmiy asosda baholash orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida Buxoro tarixiy markazidagi Ismoil Somoniy maqbarasi fizik hamda haqiqiy turistik sig'im ko'rsatkichlari Cifuentes metodologiyasi asosida baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Ismoil Somoniy maqbarasining kunlik fizik sig'imi 41 702 turist, haqiqiy sig'imi esa 29 625 turistni tashkil etdi. Mazkur obyekt bo'yicha RCC/PCC nisbati 71,16 % darajasida bo'lib, bu xalqaro me'yoriy diapazon doirasida ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Ismoil Somoniy maqbarasi uchun kunlik 29 625 nafar tashrifchini rasmiy boshqaruv limiti sifatida belgilash;
2. Ushbu obyekt uchun elektron monitoring va tashrifchilar oqimini real vaqt rejimida kuzatish tizimini yaratish;
3. Bayram va yuqori mavsum davrida vaqt bo'yicha kvotalash tizimini joriy etish;
4. Keyingi bosqichlarda ECC (Effective Carrying Capacity) ko'rsatkichlarini aniqlash orqali boshqaruv modelini chuqurlashtirish.

Mazkur tadqiqot natijalari Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektini barqaror boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UN Tourism. World Tourism Barometer 2025 Edition [Elektron resurs]. – Madrid: UN Tourism, 2025. – URL: <https://www.unwto.org/tourism-data>
2. UNESCO World Heritage Centre. Historic Centre of Bukhara [Elektron resurs]. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/602/>
3. Cifuentes Arias M. Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas. – Turrialba: CATIE, 1992. – 28 p.
4. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations: A Case Analysis // International Journal of Tourism and Travel. – 2017. – Vol.10, No.1. – P.38–46.
5. UNWTO. Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations: A Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2004. – 516 p.
6. Magablih K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra // Tourism Analysis. – 2009. – Vol.13. – No.5–6. – P.511–515. DOI: 10.3727/108354208788160414
7. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. – 2017. – Vol.5. – Iss.1.
8. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site // Advances in Hospitality and Tourism Research. – 2025. – Vol.13. – No.3. – P.237–274. DOI: 10.30519/ahtr.1483060
9. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // Canadian Geographer. – 1980. – Vol.24. – No.1. – P.5–12.
10. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants // Proceedings of the Travel Research Association 6th Annual Conference. – San Diego, 1975. – P.195–198.
11. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region: A Development Research Model at Heritage Resources // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. – 2021. – Vol.1. – No.1.
12. Kilichov M., Olsavsky F., Baiburiev R., Khayrullaeva N., Dávid L.D. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // Journal of Cultural Analysis and Social Change. – 2026. – Vol.11. – No.1.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>